

**“O‘ZKIMYOSANOAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

169 -son

B U Y R U Q

2022-yil “25” 10

Toshkent sh.

**“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida Odob-axloq
komissiyasi tarkibini tuzish hamda xodimlarning xizmat faoliyatiga oid va
xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir
qoidalarga rioya etilishini ta’minlash” to’g’risida**

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati xodimlari odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilash, ularning o‘z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajarishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat xizmatida suiiste’mol q oldini olish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarorida belgilangan topshiriqlarni so‘zsiz bajarish, shuningdek, “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda jamiyat xodimlarining xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir qoidalarga rioya etilishini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatining:
 - odob-axloq masalalari bo‘yicha maxsus ishchi komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;
 - “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining Odob-axloq namunaviy qoidalari 2-ilovaga muvofiq;
 - “O‘zkimyosanoat” AJ Odob-axloq masalalari bo‘yicha Odob-axloq komissiyasi to’g’risidagi namunaviy nizom 3-ilovaga muvofiq;
 - odob-axloq komissiyasi faoliyatini tashkil qilish va Jamiyat xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib

chiqish sxemasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamiyat yuridik byurosi boshlig'i (Ibadullayev), Komplayens xizmati (Zikirov) va boshqaruv raisi maslahatchisi (Abduraxmanova) **uch kun muddatda** Jamiyatda ichki mehnat tartib-qoidalarini va boshqa idoraviy hujjatlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirilishini ta'minlasin.

Bunda belgilab qo'yilsinki, xodimlarning tasdiqlanadigan idoraviy Odob-axloq qoidalari talablariga zid bo'lishi yoki ulardan past darajadagi talablarni nazarda tutishi mumkin emas.

4. "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati xodimlariga odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda murojaat etishlari tavsiya etilsin.

5. Belgilab qo'yilsinki:

- Jamiyatda odob-axloq qoidalari normalarining buzilishi qonun hujjatlariga muvofiq intizomiy yoki boshqacha javobgarlikka tortish uchun asos bo'lib hisoblanishi;


- Jamiyat xodimlari qonun hujjatlari va odob-axloq qoidalari talablariga to'liq rioya etishlari;

- odob-axloq qoidalariga rioya etish Jamiyat xodimlarining kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblansin.

7. Jamiyat yuridik byurosi boshlig'i (T.Ibadullayev) va Xodimlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i (A.Aripov) Jamiyatga ishga kirayotgan xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori talablarini o'rnatilgan tartibda tanishtirilishini ta'minlasin.

8. Ushbu buyruqning ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Boshqaruv raisining
birinchi o'rinbosari**



O. Temirov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI TOMONIDAN ODOB-AXLOQ QOIDALARIGA
RIOYA ETILISHINI TA‘MINLASH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda Jamiyat xodimlarining xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir qoidalarga rioya etilishini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari (keyingi o‘rinlarda — Odob-axloq qoidalari) 1-ilovaga muvofiq;

Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari va boshqa tashkilotlar 2022-yil 25-oktabrga qadar o‘z faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda:

a) Odob-axloq qoidalari asosida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar xodimlari uchun majburiy bo‘lgan xodimlarning idoraviy odob-axloq qoidalarini;

ushbu qaror bilan tasdiqlangan Namunaviy nizom asosida Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizomni va uning tarkibini tasdiqlasin;

b) ichki mehnat tartib-qoidalarini va boshqa idoraviy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin;

v) 2022-yil 1-noyabrga qadar ushbu bandning ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasi to‘g‘risida batafsil axborotni tasdiqlangan hujjatlarni ilova qilgan holda Vazirlar Mahkamasi apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmalariga taqdim etsin.

3. Xo‘jalik boshqaruvi organlariga Odob-axloq qoidalari asosida xodimlarning odob-axloq qoidalarini qabul qilish tavsiya etilsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, Odob-axloq qoidalari talablarining buzilishi qonunchilik hujjatlariga muvofiq intizomiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparati boshqaruvchisi R.V. Abduqodirov bir hafta muddatda Vazirlar Mahkamasi apparati xodimlarining odob-axloq qoidalarini Vazirlar Mahkamasi Rayosatiga tasdiqlash uchun kiritsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi:

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda bir oy muddatda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini Jamiyat xodimlari o‘rtasida tushuntirish maqsadida o‘quv-seminarlari tashkil etsin;

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda 2022-yil 20-oktabrga qadar ushbu o‘quv-seminarlari bo‘yicha tashkiliy hujjatlar to‘plamini (davlat organlari va tashkilotlari kesimida o‘quv-seminarlarini o‘tkazish grafigi va tartibi, seminarni o‘tkazishga mas‘ullar ro‘yxati, ishtirokchilarning namunaviy kontingenti va b.) Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosarlari, Bosh vazirning maslahatchilari va Vazirlar Mahkamasi apparatining boshqaruvchisi zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh., 2022-yil 14-oktabr, 595-son

“O‘zkimyosanoat” AJning
2022-yil “25” oktabrdagi
161 -son buyrug‘iga
1-ilova

**“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida Odob-axloq komissiyasining
TARKIBI**

№	F.I.O.	Lavozimi
1.	Abduraxmanova Sanobar Maxammadaminovna	“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi maslahatchisi – komissiya raisi
2.	Abdullayev Gayrat Nosir o‘g‘li	Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi – komissiya raisi o‘rinbosari
3.	Aripov Vohid Valiyevich	Xodimlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i – komissiya mas‘ul kotibi
4.	Zikirov Jamshid	Komplayens xizmati bosh mutaxassisi – komissiya a‘zosi
5.	Ibadullayev Timur Anvarovich	Yuridik byuro boshlig‘i – komissiya a‘zosi
6.	Abduraxmanova Rano Abdul- Axatovna	Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti boshlig‘i – komissiya a‘zosi
7.	Salixov Xurshid Ergashevich	Ro‘yxatga olish va ijro intizomini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i – komissiya a‘zosi

*Izoh: Komissiya a‘zolari boshqa lavozimga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga
ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki uning vazifasi yuklatilgan shaxslar
kiritiladi.*